


TABOBATDA VORISLIK: MASIHIY VA IBN SINO

Karimova Surayyo Ubaydullayevna,
tarix fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
ORCID: 0009-0000-4584-3915
e-mail: surayyo300555@gmail.com
https://doi.org/10.66803/2026.1.185

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi birinchi madaniy yuksalish davrining mashhur olimlaridan Abu Sahl Masihiy va Abu Ali ibn Sinoning tibga oid ensiklopedik xarakterdagi asarlarini qiyoslash orqali o‘sha davr tabobatidagi vorislikni ko‘rsatish maqsad qilingan. Buning uchun Masihiyning arab tilidagi “Tib san’ati bo‘yicha yuz kitob” asarining tuzilishi va mazmuni Ibn Sinoning “Tib qonunlari”niki bilan taqqoslandi. Masihiy asarida ham, Ibn Sinonikida ham o‘sha davr tabobatining nazariy va amaliy masalalari, sodda va murakkab dorilar haqida ma’lumot berilgan. “Yuz kitob”da bu ma’lumotlar ancha qisqa va yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Undan farqli o‘laroq “Tib qonunlari”da nazariya va amaliyot, dorishunoslik mavzulari aniq tizimlashtirilib, besh kitobga bo‘lingan va har bir kitobda ma’lumotlar ichki tasnif asosida berilgan. Masihiyda ayrim hollarda nazariy va amaliy mavzularning aralash kelishi kuzatiladi, Ibn Sinoda esa amaliyot nazariyaga qurilgan. Masihiyning Xorazm Ma’mun akademiyasida Ibn Sinoga ustozlik qilganini va bu ikki asar o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarni inobatga olsak, “Yuz kitob” “Tib qonunlari”ga model yoki dastur bo‘lib xizmat qilgan, deyish mumkin.

Kalit so‘zlar: *Abu Sahl Masihiy, Abu Ali ibn Sino, “Kitob al-mi’a”, “Tib qonunlari”, Musulmon renessansi, X asr musulmon tabobati, o‘rta asr tibbiy ensiklopediyalari, musulmon tabobati tarixi.*

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ В МЕДИЦИНЕ: АЛ-МАСИХИ И ИБН СИНА

Каримова Сурайё Убайдуллаевна,
доктор исторических наук, профессор,
Иститут востоковедения имени Абу Райхана Беруни
Академии наук Республики Узбекистан
ORCID ID: 0009-0000-4584-3915
e-mail: surayyo300555@gmail.com

Аннотация. Цель данной статьи – показать преемственность в медицине рассматриваемого периода путём сравнительного анализа энциклопедических трудов по медицине известных учёных эпохи первого культурного подъёма в Центральной Азии – Абу Сахла ал-Масихи и Абу Али ибн Сины. Для этого были сопоставлены структура и содержание написанного ал-Масихи на арабском языке произведения «Сто книг по медицинскому искусству» с «Каноном медицины» Ибн Сины. В обоих трудах – как у ал-Масихи, так и у Ибн Сины – освещаются теоретические и практические вопросы медицины того времени, а также приводятся сведения о простых и сложных лекарствах. В «Ста книгах» эти сведения изложены более кратко и недостаточно систематизированы. В «Каноне медицины» теоретические и практические аспекты, а также вопросы фармакологии чётко систематизированы разделением на пять книг, и в каждой из них материал представлен на основе внутренней классификации. У ал-Масихи в ряде случаев наблюдается смешение теоретических и практических тем, тогда как у Ибн Сины практика базируется на теории. Учитывая, что ал-Масихи был учителем Ибн Сины по медицине в Академии Маъмуна в Хорезме, а также сходства между этими двумя трудами, можно предположить, что «Сто книг» послужили моделью или программой для «Канона медицины».

Ключевые слова: *Абу Сахл ал-Масихи, Абу Али ибн Сина, "Kitob ал-ми'а","Канон медицины", Мусульманский ренессанс, мусульманская медицина X века, средневековые медицинские энциклопедии, история мусульманской медицины.*

CONTINUITY IN MEDICINE: AL-MASIHI AND IBN SINA

Surayyo U. Karimova,
Doctor of Historical Sciences, Professor,
Institute of Oriental Studies named of Abu Rayhan Beruni
of Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
ORCID ID: 0009-0000-4584-3915
e-mail: surayyo300555@gmail.com

Abstract. This article aims to demonstrate the continuity in medicine of that period by comparing the encyclopedic medical works of two prominent scholars of the first cultural renaissance in Central Asia – Abu Sahl al-Masihi and Abu Ali ibn Sina. For this purpose, the structure and content of al-Masihi's Arabic work "One Hundred Books on the Art of Medicine" were compared with Ibn Sina's "The Canon of Medicine". Both al-Masihi's and Ibn Sina's works address the theoretical and practical aspects of medicine of their time, as well as provide information on simple and compound drugs. In "One Hundred Books," this information is presented more briefly and is not sufficiently systematized. In contrast, in "The Canon of Medicine", theoretical and practical aspects, as well as pharmacological topics, are clearly organized, divided into five books, and presented according to an internal classification within each book. In al-Masihi's work, there is sometimes a mixing of theoretical and practical topics, whereas in Ibn Sina's work, practice is built upon theory. Considering that al-Masihi was Ibn Sina's teacher of medicine at the Ma'mun Academy in Khwarazm, as well as the similarities between these two works, it can be concluded that "One Hundred Books" served as a model or program for "The Canon of Medicine".

Key words: *Abu Sahl al-Masihi, Abu Ali ibn Sina, "Kitob al-Mi'a", "The Canon of Medicine", the Islamic Renaissance, 10th-century Islamic medicine, medieval medical encyclopaedias, the history of Islamic medicine.*

KIRISH

Ilmdagi vorislikni tadqiq etish orqali turli tarixiy davrlarda u yoki bu fan sohasida ro'y bergan jarayonlar (rivojlanish, stagnatsiya yoki regress)ni kuzatish mumkin. Ikkinchi tarafdan, bu turdagi tadqiqotlar voris olimlarning o'zidan avval o'tganlarning ilmiy merosiga ishonch darajasini ham aniqlash imkonini beradi.

Islom olamidagi ilk madaniy yuksalish (IX–XII asrlar) davrida eng taraqqiy etgan ilm sohalaridan biri – tabobatda ham vorislik an'anasi mavjud bo'lgan va bunga bir qancha misollar mavjud. Shulardan biri – Masihiy (970–1010) va Ibn Sino (980–1037) munosabatlaridir. Bu ikki olim yaqin do'st bo'lib, Xorazm Ma'mun akademiyasida birga ishlaganlar.

Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy al-Jurjoniy o'z davrining yirik tabiatshunos olimi edi. U astronomiya, matematika, falsafa, tabobat va boshqa tabiiy fanlar bilan ham shug'ullangan, ular bo'yicha asarlar yaratgan, lekin fan tarixida u ko'proq tabib sifatida mashhurdir [Karimov, 1980, s. 176].

Uning tarjimayi holiga tegishli ma'lumotlar juda kam. Bayhaqiyning yozishicha, Masihiy Jurjonda, taxminan, 970-yilda tug'ilgan, ammo Bag'dodda o'sib ulg'aygan va o'sha yerda ta'lim olgan. Diniy e'tiqodi bo'yicha nasroniy bo'lgan, lekin cherkovlarga bormay, uyda ibodat qilgan. Xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad (X asr; 992–997) uni o'z huzuriga taklif qilganida, Masihiy bu taklifni qabul qilib, Bag'doddan Xorazmga keladi [Bagirova, 1987, s. 64]. Bu yerda Masihiy Abu

Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino, Abu-l-Xayr Xammor (tav. 942), Abu Nasr ibn Iroq (vaf. 1034) kabi zamonasining yirik olimlari bilan uchrashadi va ular bilan do‘stona munosabatda bo‘ladi.

Masihiy Ibn Sinoning yaqin do‘sti bo‘lishi bilan birga, tib sohasida unga ustozlik ham qilgan. Ibn Sino Masihiyga bag‘ishlab asar yozganligi haqida ma’lumot bor [Usaybi’a, 1882, b. 328]. 1010-yilda Masihiy sulton Mahmudning (971–1030; hukmronlik yillari 998–1030) G‘aznaga taklifini rad etib, Ibn Sino bilan birga Xurosonga ketayotgan chog‘ida yo‘lda vafot etadi [Sezgin, 1970, s. 326].

Masihiy arab tilida ijod qilgan, ammo uning qancha asar yozganligi ma’lum emas, lekin manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda, u Beruniyga atab 12 ta asar yozgan, ularning yaratilish davri 998–1004-yillarga, ya’ni Beruniyning Jurjon (Gurgon)da bo‘lgan vaqtiga to‘g‘ri keladi. Masihiy bu asarlarini Beruniyga xat orqali jo‘natgan. Ularning mavzusi Beruniyning ilmiy qiziqishlari doirasida bo‘lib, geometriya, astronomiya, iqlimshunoslik, etika va tilshunoslikka bag‘ishlangan. Lekin bu asarlar bizgacha yetib kelmagan [Bulgakov, 1972, s. 83, 85]. Masihiyning matematika, astronomiya va falsafaga oid ayrim asarlarining nomi Beruniyning “Fihrist”i va “Geodeziya”sida zikr qilingan [Matviyevskaya, Rozenfeld, 1983, s. 199]. Uning she’riy uslubda yozilgan “Astronomik dostoni”dan bir parchani Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga ham kiritgan [Beruniy, 1968, b. 98].

Masihiyning tibga oid nechta asar yozganligi ma’lum emas, lekin ulardan 8 tasi saqlanib qolgan:

1. Kitob al-mi’a fi sino’at at-tibbiya (“Tib san’ati bo‘yicha yuz kitob”),
2. Fi izhor al-hikma Alloh taolo fi xalaq al-inson (“Alloh taoloning insonni yaratish haqidagi hikmatlarining ochilishi”),
3. Kitob fi ilm at-tabi’iy (“Tabiiy ilm haqida kitob”),
4. Kitob at-tibb al-kulliy (“Umumiy tib haqidagi kitob”),
5. Risola fi mohiyat al-jadariy va tadbirihi (“Chechakning mohiyati va uni davolash tadbirlari”),
6. Risola fi tahqiq amr al-vabo va-l-ihtiroz anhu va islohihi izan vaqa’a (“Vaboni aniqlash, undan saqlanish va paydo bo‘lganida uni tuzatish haqida risola”),
7. Risola fi tahqiq su’ol al-mizoj (“Mizoj masalalarini o‘rganish haqida risola”),
8. Kitob usul ilm an-nabd (“Tomir urishdan kasalni aniqlash usullari haqida kitob”) [Sezgin, 1970, s. 326–327].

Ibn Abi Usaybi’aning yozishicha, Masihiy aytilganlardan tashqari Ma’mun ibn Ma’munga (XI asr; hukmronlik yillari 1009–1017) atab yuqumli kasalliklar haqida ham kitob yozgan [Usaybi’a, 1882, b. 327].

Mazkur asarlardan birinchisi, ya’ni “Kitob al-mi’a” ensiklopedik xarakterda bo‘lib, o‘z davridagi tabobatning qariyb barcha masalalarini qamrab olgan va shu jihatdan Ibn Sinoning “Tib qonunlari”ga yaqin. Shu bois, vorislik masalasini mana shu ikki asar asosida ko‘rib chiqamiz.

MANBALAR VA METODOLOGIYA

“Kitob al-mi’a” – “Muqaddima va “Kitoblar” deb nomlangan 100 bobdan iborat. Muqaddimada muallif tibning vazifalari haqida, tabib bemorning ahvoli haqida xulosa chiqarish uchun nimalarga ahamiyat berishi kerakligi xususida fikr yuritadi. Asar boblarini soha bo‘yicha umumlashtirib keltiriladigan bo‘lsa, 1–29-boblar tibning umumiy nazariy masalalariga, 30–33-boblar sodda dorilarga,

34–38-boblar kasallik sabablari va belgilariga, 39–62-boblar isitma turlari, shishlar va tomir urishiga, 63–94-boblar boshdan oyoqqacha bo‘lgan a’zolar kasalliklariga, 95–100-boblar esa teri kasalliklari, suyak chiqishlari va zaharlarga bag‘ishlangan [SVR. Meditsina, 2000, s. 15].

“Kitob al-mi’a” bizgacha ko‘plab qo‘lyozma nusxalarda yetib kelgan. Taniqli fan tarixchisi Fuat Sezginning (1924-2018) ma’lumotlariga qaraganda, Buyuk Britaniya, Germaniya, Misr, Rossiya, Suriya, Turkiya, Fransiya, Eron va Hindiston qo‘lyozmalar fondida bu asarning turli davrlarda ko‘chirilgan nusxalari saqlanadi [Sezgin, 1970, s. 326-327]. Toshkentda ham bu asarning to‘liq bo‘lmagan nusxasi O‘zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida mavjud, lekin bu nusxa haqidagi ma’lumot F.Sezgin kitobiga kirmagan. Mazkur qo‘lyozma to‘liq emas: unda muqaddimaning bir qismi (1a–5b) va 1–36-boblar mavjud. Nusxa nasx xatida XVIII asrda ko‘chirilgan. Hajmi 214 varaq, o‘lchami 20x16,5 sm, har bir varaqda 21 ta satr bor [O‘zR FAShI, № 12970].

“Kitob al-mi’a”ning nashrlari ham bor: u 2000-yilda Damashqda [al-Masīhī, 2000], 2004-yil Bayrutda [al-Masīhī, 2004] va 2005-yil Tehronda [al-Masīhī, 2005] chop etilgan.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari”ga kelsak, u besh kitobdan iborat bo‘lib, o‘rta asr tabobatining barcha nazariy va amaliy masalalarini qamrab olgan.

Birinchi kitobda ko‘proq nazariy masalalar bayon qilingan. Tib ilmi, uning vazifalari, xilt, mizoj haqida tushuncha, suyak, mushaklar, tomirlarning tuzilishi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari, turkumlari, ularni davolashning umumiy usullari, sog‘liqni saqlash haqidagi ta’limot, ovqatlanish va qon olish masalalari haqida gapirilgan [Ibn Sino, 1983].

Ikkinchi kitob o‘sha davr tabobatida ishlatilgan sodda, ya’ni yakka holda ishlatiladigan dorilarga bag‘ishlangan. Unga ma’dan, o‘simlik va hayvon a’zolaridan olingan 800 dan ortiq dori kiritilgan bo‘lib, ularning mizoji, xususiyatlari, tibbiy ta’siri jadvallar tarzida bayon qilingan. Ibn Sino tavsiya qilgan dorilarning ko‘pi hozirgi farmakopeyalarga kiritilib, amaliyotda qo‘llanmoqda [Ibn Sino, 1982].

Uchinchi kitob xususiy patologiya va terapiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, unda inson a’zolarining har biriga xos bo‘lgan kasalliklarni aniqlash va davolash yo‘llari ko‘rsatilgan. Bu yerda keltirilgan Ibn Sino qo‘llagan ba’zi diagnostika va muolaja usullari hozirgi tabobatda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan [Ibn Sino, 1979; Ibn Sino, 1980].

To‘rtinchi kitob “umumiy”, ya’ni kishi a’zolaridan birortasiga xos bo‘lmagan kasalliklarga bag‘ishlangan. Bundaylarga yara-chaqalar, shish va toshmalar, suyaklarning sinish va chiqishi, kuyish, isitmalar va turli a’zolarning jarohatlanishi kiritilgan. Bundan tashqari yuqumli kasalliklar, ularni davolash, zaharlar va zaharlanish, ziynat (kosmetika) vositalari va tadbirlari haqida ham ma’lumot beradi [Ibn Sino, 1980 (4)].

Beshinchi kitob farmakopeya bo‘lib, o‘rta asrlarda “Qarobodin” yoki “Aqrabodin” deb atalgan. Bunda murakkab tarkibli dorilarning turlari, ularni tayyorlash usullari hamda muayyan a’zolar uchun tavsiya etiladigan murakkab dorilar keltirilgan. Ibn Sinoning “Qarobodin”i bir necha asrlar davomida keyingi avlod dorishunoslari uchun mukammal qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi [Ibn Sino, 1980 (5)].

Biz maqolada “Kitob al-mi’a”ning yuqorida zikr qilingan qo‘lyozmasi hamda Ibn Sino “Tib qonunlari”ning 1979–1983-yillardagi 2-nashridan foydalandik.

MUHOKAMA

Masihiyning kitobi bilan Ibn Sino “Tib qonunlari”ni solishtirganda ikkala asarda ham mavzularning tanlanishi va joylashuvidagi o‘xshashlikni ko‘rish mumkin. Faqat “Kitob al-mi’a” hajm

jihatdan kichik bo‘lib, unda mavzular boblar orasida taqsimlangan. “Qonun”da esa har bir kitobni bir katta asarning qismlari sifatida ham, alohida mustaqil asar shaklida ham qabul qilish mumkin.

Masihiyning maqsadi tabobatda o‘zigacha to‘plangan nazariy bilimlarni isloh qilish va to‘ldirish hamda amaliyot qismini qisqa va lo‘nda shaklda, foydalanuvchiga qulay shaklda berishdan iborat edi [Akel, 2023, s. 91–100]. Shuning uchun ham uning kitobida davolash usullari va dorishunoslik masalalariga urg‘u berilgan.

Masihiy nazariy masalalarda mutaqaddim tabiblardan Gippokrat (mil. av. taxm. 460–355) va Galenga (129–200) ergashgan. Shu holatni biz Ibn Sino “Tib qonunlari”da ham kuzatamiz: Gippokrat nomi birinchi kitobda 7 marotaba anatomiya qismi (suyaklarning tuzilishi)da, sog‘liqni saqlash (jismoniy mashg‘ulotlar foydasi va toza havo) hamda organizmni tozalash usullari (qon olish va qustirish) qismlarida zikr qilinadi [Ibn Sino, 1983, b. 46, 62, 317, 362, 389, 390, 407]. Shu mavzular bo‘yicha Galenga 35 marta ishora bor. Nazariy masalalar bayonida Masihiy asarida “Qonun”dan farqli o‘laroq tizimli tuzilish va mantiqiy bayon yetishmaydi. Agar “Qonun”da har bir nazariy mavzu kichik mavzularga tasniflab chiqilgan bo‘lsa (fann: ta’lim: jumla: fasl), “Kitob al-mi’a”da bunday tasnif yo‘q.

Ikkala kitobga deyarli bir xil mavzular kiritilgan bo‘lsa-da, ularning joylanishida biroz farq bor: Masihiy kitobida nazariy va amaliy mavzular aralashib ketgan, ya’ni aniq bo‘linish kuzatilmaydi. Masalan, nazariy qismga tegishli kasallik sabablari va belgilari (34–38-boblar) sodda dorilar (30–33-boblar) dan keyin, xususiy patologiyaga oid qism (63-94-boblar) umumiy tasnifsiz umumiy patologiya mavzulari (39–62 va 95–100-boblar) orasida keladi. Itr, ya’ni xushbo‘y moddalar haqidagi kitob (19-bob) nazariy mavzular orasida berilgan [O‘zR FAShI, № 12970, v. 104b–107a]. “Qonun”da esa kasallik sabablari va belgilari I kitobga, nazariy masalalar ichiga katta bo‘lim (fann) sifatida kiritilgan, xususiy patologiya Sh kitobda, umumiy patologiya masalalari IV kitobda ichki taqsim asosida joylashtirilgan, ya’ni “Tib qonunlari”da amaliyot nazariyaga qurilgan bo‘lib, asar aniq bir tizim asosida yozilganini ko‘ramiz.

“Kitob al-mi’a”ning diqqatga sazovor jihatlaridan biri dorishunoslik qismidir. Asarning 30–33-boblarida [O‘zR FAShI, № 12970, v. 149b–189a] 390 ta sodda dori haqida ma’lumot berilgan. Shulardan 30-bob (149b–154b) dorilarning quvvatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif turli sodda dorilarning oziqligi va davo kuchi orasidagi farqlar, ularning inson tanasiga ta’siri qanday bo‘lishi, dorini inson organizmining mizojiga qarab qanday tanlash lozimligi haqida ko‘rsatmalar beradi. Undan tashqari, badan sirtidan ishlatiladigan dorilar hamma vaqt ham ichki iste’mol uchun to‘g‘ri kelavermasligi, bunday zaharli moddalar bilan davolaganda ehtiyot bo‘lish kerakligi haqida ogohlantiradi.

31-bob (155a–180b) sodda dorilarning o‘ziga bag‘ishlangan. Bu yerda Masihiy abjad tartibida 394 ta sodda dorining tibbiy ta’sirini bayon qilgan. Bu moddalarning ba’zilari (masalan, malobatr, bulut va b.) ikki martadan yozilgan bo‘lgani uchun Masihiy ro‘yxatidagi sodda dorilar sonini 390 ta deyish mumkin. Shulardan 37 tasini ma’daniy, 38 tasini hayvoniy moddalar, 315 tasini o‘simlik dorilar tashkil qiladi. Har bir maqolada shu dorining tabiati va qaysi kasalliklarga davo bo‘lishi qisqa tarzda yozilgan. Masalan: “Izxir – qorachayir. Ikkinchi darajada issiq, birinchi darajada quruq. Tomirlarning og‘zini ochadi, siydik va hayz qonini yurgizadi, toshlarni maydalaydi. Agar ichilsa yoki qo‘yib bog‘lansa, me’da va jigar shishlarini tarqatadi. Tish milklarini va me’dani baquvvat qiladi” [O‘zR FAShI, № 12970, v. 155a].

Kitobning 32-bobida (181a–182b) muallif sodda dorilarni ularning mizojiga (tabiatiga) qarab guruhlagan. Masalan, avval birinchi darajada issiq bo‘lgan dorilarni, so‘ng ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi darajada issiq bo‘lgan dorilarning ro‘yxatini beradi. Shundan so‘ng sovuq mizojli dorilarning (ular ham darajasi bo‘yicha), keyin quruq, ho‘l, tiqilmalarni ochuvchi, erituvchi, qizdiruvchi, tozalovchi va shu kabi boshqa xususiyatli dorilar ro‘yxati keltirilgan.

33-bobda (182b–189a) mazkur dorilarning ishlatilishi, ya’ni u yoki bu kasallikka ta’siri, masalan, uxlatuvchi, qon to‘xtatuvchi, ichni bog‘lovchi, gijjalarni o‘ldiruvchi, yaralarni bitiruvchi va boshqalar sanalgan. Umumiy hisobda 26 ta ro‘yxat berilgan. “Kitob al-mi’a”ning 32–33-boblarida keltirilgan dorilarning mizoji va ta’siri bo‘yicha ro‘yxatlari boshqa tibbiy kitoblarda uchramaydi. Dorilarni mizoji, quvvati va ta’siriga qarab tasniflash prinsipi Ibn Sino “Tib qonunlari” II kitobida ham qo‘llangan, ya’ni Masihiyning shogirdi sifatida u ustozining kitobidan dastur yoki model tarzida foydalangan bo‘lishi mumkin. Zero, Ibn Sino Buxoro va Xorazmda bo‘lgan davrda o‘z kitobi uchun ham nazariy, ham amaliy ma’lumotlarni yig‘ib yurgan va 1012-yildan uni yozishga kirishgan [Zavadovskiy, 1980, s. 211–212]. Faqat Masihiydan farqli o‘laroq Ibn Sino mazkur kitobni ikki qismga bo‘lib, birinchi qismda sodda dorilarning mizojini o‘rganish yo‘llari, dorilar quvvatining ta’sirini va dorilarga ko‘rsatiladigan ta’sirlar haqida batafsilroq bayon qilgan. Biror kasallikka qarshi dori tanlash shu dori bilan gavdaning mizojini bilish prinsipiga asoslangan. Shu yerda dorilar mizojini aniqlashning bir necha usullari berilgan. Shu jihatdan bu kitob boshqa dorishunoslik asarlaridan ijobiy farq qiladi.

Ikkinchi qismda sodda dorilar abjad tartibida alohida maqolalar shaklida joylashtirilgan. Har bir maqola, Ibn Sino tili bilan aytganda, jadvallarga bo‘lingan. Jadvallarning maksimal soni 16 ta bo‘lib, ba’zi bir dori uchun bu jadvallarning hammasi, boshqalari uchun esa ayrimlarigina qo‘yilgan. Dorilar tibbiy ta’sirining bunday tartibli tasniflab berilishi faqat Ibn Sino tarafidan amalga oshirilgan. Shuni aytish mumkinki, “Kitob al-mi’a”ning 30–33-boblaridagi ma’lumotlar nazariy asos bilan ta’minlanib, to‘ldirib kengaytirilgan va tizimlashtirilgan shaklda Ibn Sino tomonidan “Tib qonunlari”ning II kitobiga kiritilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Masihiyning “Kitob al-mi’a” kitobini IX–X asrlarda antik bilimlar, asosan, qadimgi yunon tibbiy adabiyoti asosida yaratilgan “umumiy tabobat”, ya’ni tibning ham nazariy, ham amaliy masalalarini qamrab olgan asarlarning bir namunasi sifatida baholash mumkin. Garchi undagi ma’lumotlar aniq bir tizimga solinmagan bo‘lsa-da, bu asar XI asrda “umumiy tabobat” yoki tibbiy ensiklopediya uslubida yozilgan Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”ga dastur bo‘lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akel, Y.H. (2023). From the “Hundred Books on the Skills of Medicine” to “The Canon of Medicine”– Written monuments of the Orient, vol. 9, № 1. – P. 91–100.
2. Abū Sahl al-Masīhī. (2000). Kitāb al-mi’a fi al-ṭibb. Damascus: French Institute for Arab Studies.
3. Abū Sahl al-Masīhī. (2004). Kitāb al-mi’a fi al-ṭibb. Beirut: Biblion Publishing House.
4. Abū Sahl al-Masīhī. (2005). Kitāb al-mi’a fi al-ṭibb. Tehran: Iranian University of Medical Sciences, Institute of Medical History, Islamic and Complementary Medicine.

5. Sezgin, F. (1970). Geschichte des Arabischen Schrifttums. Leiden, B III. [Sezgin F. History of Arabic Literature. Leiden, vol. III].
6. Abu Ali ibn Sino. (1983). Tib qonunlari. I kitob. – Arabchadan tarjima: A. Rasulev, S. Mirzayev, U.I. Karimov, A. Murodov. Toshkent. [Abū ʿAlī ibn Sīnā. (1983). Canon of Medicine. Book 1. – Translated from Arabic by A. Rasulev, S. Mirzaev, U.I. Karimov, A. Muradov. Tashkent. (in Uzbek)].
7. Abu Ali ibn Sino. (1982). Tib qonunlari. II kitob. – Arabchadan tarjima: S. Mirzayev, A. Rasulev, U.I. Karimov, A. Murodov, Q. Munirov. Toshkent. [Abū ʿAlī ibn Sīnā, (1982). Canon of Medicine. Book 2. – Translated from Arabic by S. Mirzaev, A. Rasulev, U. Karimov, A. Muradov, Q. Munirov. Tashkent. (in Uzbek)].
8. Abu Ali ibn Sino. (1979). Tib qonunlari. III (1) kitob. – Arabchadan tarjima: A. Rasulev, A.P. Qayumov. Toshkent. [Abū ʿAlī ibn Sīnā. (1979). Canon of Medicine, Book 3 (1). – Translated from Arabic by A. Rasulev, A.P. Qayumov. Tashkent. (in Uzbek)].
9. Abu Ali ibn Sino. (1980). Tib qonunlari. III (2) kitob. – Arabchadan tarjima: S. Mirzayev, A. Rasulev. Toshkent. [Abū ʿAlī ibn Sīnā (1980). Canon of Medicine, Book 3 (2). – Translated from Arabic by S. Mirzaev, A. Rasulev. Tashkent. (in Uzbek)].
10. Abu Ali ibn Sino. (1980.4) Tib qonunlari. IV kitob. – Arabchadan tarjima: A. Rasulev, A. O‘rinboyev. Toshkent. [Abū ʿAlī ibn Sīnā, (1980.4). Canon of Medicine. Book 4. – Translated from Arabic by A. Rasulev, A. Urunbaev. Tashkent. (in Uzbek)].
11. Abu Ali ibn Sino. (1980.5) Tib qonunlari. V kitob. – Arabchadan tarjima: U.I. Karimov. Toshkent, 1980 [Abū ʿAlī ibn Sīnā. (1980.5). Canon of Medicine. Book 5. – Translated from Arabic by U.I. Karimov. Tashkent. (in Uzbek)].
12. Abu Rayhon, Beruniy. (1968). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I.Abdullayev va A.Rasulov tuzgan. *Tanlangan asarlar.* T. 1. Toshkent. [Abū al-Rayḥān al-Bīrūnī. (1968). Selected Works, I. *Chronology*. – Translated from Arabic by A. Rasulev, notes by I. Abdullaev & Rasulev. Tashkent. (in Uzbek)].
13. Abu Sahl al-Masihiy. Kitob al-mi’a fi sino’at at-tibbiya. O‘zR FAShI qo‘lyozmasi, № 12970 [Abū Sahl al-Masīhī. Kitob al-mi’a fi al-ṣinā ’at al-ṭibbiyya. Manuscript of the Al-Biruni Institute of Oriental Studies collection, N 12970].
14. Bagirova, S.G. (1987). Sochineniye “Tatimma sivan al-xikma” al-Bayxaki kak obrazes srednevekovogo ensiklopedicheskogo spravochnika. Tashkent, [Bagirova, S.G. (1987). Al-Bayhaqi’s work “Tatimma Sivan al-Hikma” as an example of a medieval encyclopaedic reference work. Tashkent. (in Russian)].
15. Bulgakov, P.G. (1972). Jizn i trudi Beruni. Tashkent. [Bulgakov, P.G. The Life and Works of Beruni. Tashkent. 1972. (in Russian)].
16. Zavadovskiy Yu.N. (1980). Abu Ali ibn Sina. Jizn i tvorchestvo. Dushanbe. [Zavadovsky, Yu. N. (1980). Abu Ali ibn Sina: Life and Work. Dushanbe. (in Russian)].
17. Ibn Abi Usaybi’a. (1982). Uyun al-anbo fi tabaqot al-atibbo. Qohira, J.1, 1882 m. (arab tilida) [Ibn Abī Uṣaybiʿa. (1982). ʿUyūn al-anbāʾ fī ṭabaqāt al-aṭibbāʾ, vol. 1. Cairo. (in Arabic)].

18. Karimov U.I. (1980). Sredneaziatskiye vrachi epoxi Ibn Sini. – *Sb. Abu Ali ibn Sina i yestestvennie nauki*. Tashkent. [Karimov, U.I. (1980). Central Asian Physicians of the Era of Ibn Sina. *In: Abu Ali ibn Sina and the Natural Sciences.* Tashkent. (in Russian)].
19. Matviyevskaya G.P., Rozenfeld B.A. (1983). Matematiki i astronomi musulmanskogo srednevekovya i ix trudi (VIII–XVII vv.). T. 2, Moskva, 1983 [Matvievskaya, G.P., and Rosenfeld, B.A. (1983). Mathematicians and Astronomers of the Muslim Middle Ages and Their Works (8th–17th centuries), vol. 2, Moscow. (in Russian)].
20. Sobraniye vostochnix rukopisey Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. Meditsina. (2000). – Sostaviteli: X.Xikmatullayev, S.U. Karimova. Tashkent, [Collection of Oriental Manuscripts of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Medicine. (1980). – Edited by: H. Hikmatullaev, S.U. Karimova. Tashkent. (in Russian)].